

UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHGA REFLEKSIV YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Odiljanova Gulasalxon Ilxomjon qizi

NamDu tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda refleksiv yondashuv texnologiyasini joriy etish hamda takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o'qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish, o'quv jarayonida o'z faoliyatini tahlil qilish va baholashga yo'naltirilgan yondashuvlarning samaradorligi aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, refleksiv yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotni yaxshilaydi, ta'lim sifatini oshiradi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada olingan tajriba asosida refleksiv boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: refleksiv yondashuv, pedagogik jarayon, tajriba-sinov, ta'lim sifati, refleksiv kompetensiya, samaradorlik ko'rsatkichlari, boshqaruv texnologiyasi.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВНЕДРЕНИЮ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИИ РЕФЛЕКСИВНОГО ПОДХОДА К ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ПРОЦЕССОМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В статье представлены результаты опытно-экспериментальной работы по внедрению и совершенствованию технологии рефлексивного подхода в организации и управлении педагогическими процессами в общеобразовательных учреждениях. В ходе исследования выявлена эффективность развития рефлексивной компетентности педагогов, направленной на анализ и оценку собственной профессиональной деятельности. Полученные результаты показывают, что применение рефлексивного подхода способствует улучшению взаимодействия между учителем и учеником, повышает качество обучения и формирует навыки самостоятельного мышления у учащихся. На основе эксперимента предложены рекомендации по внедрению механизмов рефлексивного управления в педагогическую практику.

Ключевые слова: рефлексивный подход, педагогический процесс, опытно-экспериментальная работа, качество образования, рефлексивная компетентность, эффективность, технология управления.

RESULTS AND EFFECTIVENESS INDICATORS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE INTRODUCTION AND IMPROVEMENT OF THE TECHNOLOGY OF THE REFLECTIVE APPROACH TO THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF PEDAGOGICAL PROCESSES IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. *The article presents the results of experimental studies aimed at introducing and improving the technology of the reflective approach in organizing and managing pedagogical processes in general secondary education institutions. The research identifies the effectiveness of developing teachers' reflective competence focused on analyzing and evaluating their professional activities. The findings show that the reflective approach enhances teacher–student interaction, improves the quality of education, and positively influences the development of students' independent thinking skills. Based on the experimental results, the article provides recommendations for implementing reflective management mechanisms in educational practice.*

Keywords: *reflective approach, pedagogical process, experimental research, quality of education, reflective competence, efficiency indicators, management technology.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda pedagogika fanining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qituvchi faoliyatining reflektiv tahlil asosida yo'naltirilishi, uning kasbiy o'sishiga, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, reflektiv yondashuv texnologiyasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish — ta'lim sifatini oshirishning, pedagogik boshqaruvni insonparvarlashtirishning va o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy nigoh bilan qarashini shakllantirishning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda.

Reflektiv yondashuv — bu pedagogik faoliyatni tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan tizimli jarayon bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangicha asosda tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida — rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va tahlil qilishda — reflektiv fikrlashni faollashtirishni ko'zda tutadi. Natijada o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy faolligini rag'batlantiruvchi yetakchi shaxs sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VE METODOLOGIYA

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish to'g'risida"gi Prezident farmonlari hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasida ta'lim jarayoniga innovatsion va refleksiv yondashuvni tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalarida tajriba-sinov asosida refleksiv texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda refleksiv yondashuv texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tajribalar davomida o'qituvchilarning refleksiv kompetensiyasi, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish qobiliyati hamda o'quvchilar bilan o'zaro muloqot samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, refleksiv yondashuvning ta'lim sifatiga, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, refleksiv yondashuv texnologiyasining bosqichma-bosqich joriy etilishi pedagogik jarayonni demokratlashtirish, o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasini kuchaytirish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, refleksiv yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning nazariy hamda amaliy asoslarini yanada chuqurlashtirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishi o'zaro bog'liq bo'lgan tahliliy, tayyorlov, tashxis, ta'limiy va yakuniy bosqichlarda tashkil etildi. Pedagogik tajriba-sinov ishining tahliliy bosqichi hisoblangan birinchi bosqichida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyasini joriy etish va takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishini o'tkazish metodikasiga oid tushunchalari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishining tayyorlov bosqichi hisoblangan ikkinchi bosqichida: tajriba-sinov ishining maqsadi, vazifasi va ko'zlanayotgan natijalar shakllantirildi; tajriba-sinov ishlarining ob'ektlari aniqlandi, uning natijalarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari belgilandi; o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyasining monitoringi va baholash dasturlari ishlab chiqildi; axborotlarni to'plash, ularga ishlov berish metodi va vositalari tanlandi.

Tajribaning yakuniy qismida statistik ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida oldindan belgilangan mezonlardan tashqari umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan test va savolnomalar natijalari hisobga olindi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida dasturning boshida va oxirida guruhlar bo'yicha natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarining rivojlanish darajalari past, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linib tahlil qilindi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tajriba -sinov ishlarida Namangan viloyati maktablaridan, Farg'ona viloyati maktablaridan va Qashqadaryo viloyati maktablaridan o'qituvchilar va o'quvchilar respondent sifatida qatnashdi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov maydonlari va undagi respondentlar soni quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (1-jadval)

1-jadval

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi

Tajriba-sinov obyektlari	Tajriba-sinov ishlariga qamrab olingan respondentlar soni			
	O'qituvchilar soni (612 nafar)		O'quvchilar soni (622 nafar)	
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Namangan viloyati	129	128	99	97
Farg'ona viloyati	110	106	87	84
Qashqadaryo viloyati	68	71	128	127
Jami	307	305	314	308

Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida tajriba guruhida ham, nazorat guruhida ham Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha samaradorlik darajasining rivojlanganligi aniqlandi. Tajribaning yakuniy qismida statistik ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida oldindan belgilangan mezonlardan tashqari Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarining samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan test va savolnomalar natijalari hisobga olindi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarining bo'yicha samaradorlik darajasini aniq ko'rsatish uchun tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida dasturning avvalida va so'ngida guruhlar bo'yicha natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasini o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarni umumiy jadvalini keltiramiz(2-jadval).

2-jadval

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so

Baholash mezonlari		Tajriba guruhi (307 nafar respondent)						Nazorat guruhi (305 nafar respondent)					
		Yuqori		O'rta		Past		Yuqori		O'rta		Past	
		T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
1	Shaxsiy refleksiya	68	100	105	161	134	46	59	57	112	119	134	129
2	Kasbiy refleksiya	69	102	106	158	132	47	56	58	109	120	140	127
3	Metakognitiv refleksiya	67	103	109	159	131	45	60	59	108	119	137	127
4	Ijtimoiy refleksiya	68	99	108	162	131	46	57	58	111	118	137	129
Umumiy o'rtacha		68	101	107	160	132	46	58	58	110	119	137	128

ngidagi (T.s.) umumiy natijalari

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'quvchilarning nazorat guruhi o'quvchilarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'qituvchilarning nazorat guruhidagi o'qituvchilarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori ekan.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajasi yuqorida ko'rsatilgan mezonlar asosida aniqlandi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarning umumiy jadvalini viloyatlar kesimida keltiramiz (3-jadval).

3-jadval

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarning (viloyatlar kesimida) umumiy jadvali

Tajriba - sinov obyektlari	lar Respondent	Tajriba guruhlari						lar Respondent	Nazorat guruhlari					
		Yuqori		Oʻrta		Past			Yuqori		Oʻrta		Past	
		T.a. .	T.s.	T.a. .	T.s.	T.a. .	T.s.		T.a. .	T.s.	T.a. .	T.s.	T.a. .	T.s.
Namangan viloyati maktablari	129	28	42	45	67	56	20	128	24	24	46	49	58	55
Fargʻona viloyati maktablari	110	23	36	39	57	48	17	106	20	20	38	41	48	45
Qashqadaryo viloyati	68	17	23	23	36	28	9	71	14	14	26	29	31	28

maktabla ri														
Umumiy	307	68	101	10	160	13	46		58	58	11	119	13	128
				7		2		305			0		7	

Jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan avvalgi statistik ko'rsatkichlari taqqoslandi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida tajribadan avvalgi ma'lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba -sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Namangan viloyati maktablari	28	45	56	129
	Farg'ona viloyati maktablari	23	39	48	110
	Qashqadaryo viloyati maktablari	17	23	28	68
	Umumiy o'rtacha	68	107	132	307
Nazorat guruhi	Tajriba - sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Namangan viloyati maktablari	24	46	58	128
	Farg'ona viloyati maktablari	20	38	48	106
	Qashqadaryo viloyati maktablari	14	26	31	71
		58	110	137	305

3.2.4- jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, tajriba-sinov avvalidagi tajriba va nazorat guruhlar natijalari taqqoslandi (3.2.5-jadvalga qarang).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining avvalidagi ma'lumotlarning solishtirma tahlili (son va foizlarda)

Jadval 5.

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish natijalari (son va % da)		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	307	68 22	107 35	132 43
Nazorat guruhi	305	58 19	110 36	137 45

Tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'quvchilarning nazorat guruhidagi o'quvchilarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi.

XULOSA

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni refleksiv yondashuv asosida tashkil etish o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini tubdan yangilashga, o'z-o'zini tahlil qilish va baholash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv natijasida ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi, ta'lim mazmuni esa o'zaro hamkorlik, ijodkorlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. Refleksiv yondashuv texnologiyasining amaliy joriy etilishi natijasida o'qituvchilar o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ongli ravishda qo'llay boshlaydi. Shuningdek, ularning kasbiy refleksiyasi, pedagogik muloqot madaniyati hamda innovatsion yondashuvlarga ochiqlik darajasi ortadi. O'quvchilar esa o'quv faoliyatida mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini asoslash, o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, refleksiv yondashuv texnologiyasi ta'lim jarayonini boshqarishda quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minladi:

- o'qituvchilarda **kasbiy refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining** oshishi;
- ta'lim jarayonida **samarali kommunikativ muhitning** shakllanishi;
- o'quvchilarda **ijodiy va tanqidiy fikrlash** ko'nikmalarining faollashuvi;

- ta'lim sifatining umumiy ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish dinamikasining kuzatilishi.

Shu bois refleksiv yondashuv texnologiyasini pedagogik jarayonda tizimli tatbiq etish, uni o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik dasturlariga kiritish, shuningdek, ta'lim boshqaruvi tizimida refleksiv monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu nafaqat o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va madaniy ongli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos keluvchi, insonparvar, kompetensiyaga yo'naltirilgan va innovatsion tizimni shakllantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Қ.Х. Педагогик тафаккур ва инновацион фаолият асослари. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2021. – 248 б.
2. Давлатова Ш.А. Рефлексив ёндашув педагогик маҳоратни ривожлантириш омиллари сифатида. – Тошкент: “Илм-зиё”, 2020. – 196 б.
3. Dewey, J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933. – 336 p.
4. Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
5. Юлдашева Н.М. Педагогик жараёни бoшқаришда инновацион ва рефлексив ёндашув. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. – Тошкент, 2022. – №4. – Б. 55–61.